

SPORT DISKURSINING O'RGANILISHI

Xasanov Zafar Baxtiyorovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili 2-fakulteti yoshlar masalalari

va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21425373>

I.Soina o'zining maqolasida sport diskursini zamonaviy lingvomadaniyatning ajralmas qismi sifatida ta'riflab, sport nutqini madaniyatni shakllantiruvchi ijtimoiy mexanizm sifatida talqin qiladi, uning pragmatik funksiyalarini milliy identitet, ijtimoiy birdamlik va qadriyatlarni mustahkamlash bilan bog'laydi¹. Bizning fikrimizcha, I.Soina qarashlari futbol muxlislari nutqiga to'liq tatbiq etiladi, zero ularning nutqi ko'pincha milliy g'urur, hamjihatlik va o'zligini ifodalashning pragmatik vositasiga aylanadi.

Ingliz sport sharhlarida tezkorlik, qisqa jumlar va emotsional undovlar ustuvordir, buni auditoriyani darhol jalb qilishga qaratilgan pragmatik strategiya sifatida izohlash mumkin². Bizningcha, inglizcha sharhlarning bunday xususiyatlari futbol muxlislari nutqiga ham singib ketgan, chunki internet sharhlarida ko'pincha qisqa, ammo "Wow!", "No way!", "Unbelievable!" kabi kuchli emotsional iboralar ishlatiladi.

A.B. Zilbert va B.A. Zilbert sport diskursining asosiy tushunchalarini tizimli shaklda bayon etib, uni mustaqil tadqiqot sohasi sifatida shakllantirish yo'lidagi vazifalarni belgilaydilar. Mualliflar sport diskursini pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilib, unda nutqiy aktlarning interaktiv tabiati, metaforik modellar va emotsional kuchni asosiy komponent sifatida ajratib beradilar³. Bu borada qayd etish zarurki, muxlislarning har bir nutqiy chiqishi ijtimoiy-guruhiiy birdamlikni shakllantiruvchi pragmatik hodisadir.

K. File tomonidan chop etilgan Fan identity and football culture maqolasi muxlis identitetini turlicha ko'rinishlarda tahlil qiladi. Olim muxlislarni faqat "hooligan" stereotipi bilan chegaralash noto'g'ri ekanini ko'rsatib, ularning nutqi ko'p funksiyali kommunikativ vosita ekanini ta'kidlaydi. Masalan, bir xil shior ayrim guruhda hazil yoki o'ziga xos o'yin sifatida talqin qilinsa, boshqa guruhda u haqorat yoki ochiq qarshilik belgisi bo'lishi mumkin⁴. Bizningcha, bu fikr muxlislar nutqining kontekstga bog'liqligini yaqqol ko'rsatadi. Shu sababli, futbol diskursini pragmatik tahlil qilayotganda, faqat lingvistik shaklni emas, balki ijtimoiy sharoit, auditoriya va madaniy qadriyatlarni ham hisobga olish zarur.

J. Luhrs futbol qo'shiqlarini xalq og'zaki ijodining *blason populaire* an'anasi bilan bog'lab, futbol qo'shiqlari va shiorlari tarixan xalqning kollektiv identitetini shakllantirish vositasi bo'lib kelgan va hozir ham xuddi shu vazifani bajaradi, deya ta'kidlaydi. Qo'shiqlar ritm va takroriylik orqali auditoriyani birlashtiradi, undagi metaforalar esa "biz" va "ular" o'rtasidagi chegarani mustahkamlaydi⁵. Luhrs qo'shiqlarning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida

¹ Soina I. Sports discourse of modern linguistic culture // Actual Problems of the Humanities and Natural Sciences. – Vol. 9. – No. 3. – 2023. – P. 79.

² Лебедев А.В., Цыбина Л.В. Особенности англоязычного спортивного дискурса // International Research Journal. – № 7 (145). – 2024. – С. 3.

³ Зильберт А.Б., Зильберт Б.А. Спортивный дискурс: базовые понятия и категории; исследовательские задачи // Язык. Сознание. Коммуникация. – Вып. 17. – Москва: МАКС Пресс, 2001. – С. 58.

⁴ File K. Fan identity and football culture: locating variation in the 'fan as hooligan' discourse // Soccer & Society. – 2023. – Vol. 24. – № 8. – P. 1011.

⁵ Luhrs J. Football Chants and the Continuity of the Blason Populaire Tradition // (Working paper). – 2007. – P. 5.

ritm va muntazam takroriylikni ajratadi. Aynan shu formal belgilar auditoriyani yagona tovush va harakatga safarbar qilib, “bir ovozli jamoa” effektini yuzaga keltiradi. Ya’ni, qo’shiq matni oddiy bo’lsa-da, uning qayta-qayta takrorlanishi natijasida auditoriya o’zini bitta ijtimoiy butunlik sifatida his qiladi. Bu perlokutiv ta’sir muxlislarining ruhiy holatini oshiradi va ularni o’z jamoasiga yanada sodiq qiladi.

M. Meszaros radio sharhlarida batafsillik, televideniya emotsional intonatsiya va qisqa iboralar, internet translatsiyalarida esa tezkorlik va interaktivlik ustuvorligini qayd etadi⁶. Stadionda muxlislar ko’proq intonatsion vositalardan (hayqiriq, qo’shiq), onlayn maydonda esa qisqa yozma birliklardan foydalanadilar. Demak, muxlislar nutqining pragmatik tabiatini o’rganishda kanal va medium faktorlarini hisobga olish muhimdir.

R.P. Putraning fikricha, sharhlovchining “killer pass” yoki “deadly striker” kabi iboralari nafaqat voqeani ifodalaydi, balki auditoriya ongida kuchli emotsional ta’sir uyg’otadi⁷. Darrhaqiqat, bunday figurativ birliklar muxlislar nutqida ham keng qo’llanib, sharhlovchidan o’zlashtiriladi va qayta ishlanadi. Masalan, muxlis “Messi bugun haqiqiy sehrigar!” deb aytishi, metaforani o’zlashtirib, uni o’z pragmatik maqsadiga moslashtirganidan dalolat beradi. Shu tariqa, figurativ til sport diskursining pragmatik kuchini ko’paytiruvchi vosita sifatida namoyon bo’ladi.

N.A. Ayaqulov sport terminlari o’zlashgach, yangi pragmatik ma’nolar kasb etishini ta’kidlaydi. Masalan, “derbi” so’zi o’zbek muxlislar nutqida nafaqat ikki jamoa uchrashuvini bildiradi, balki hissiy taranglik va katta qiziqish uyg’otuvchi voqea sifatida ishlatiladi⁸. Olim ayrim tadqiqotchilar chet el terminlari kirib kelishini “tilni ifloslantirish” deb baholashini qayd etadi. Shu bilan birga, real nutq amaliyotida muxlislar ikki xil yo’lni tanlaydilar: kimdir “jarima zarbasi” kabi milliy shaklni afzal ko’rsa, boshqalar “penalti” kabi xalqaro variantdan foydalanadilar. Natijada muxlislar ongida ikki tendensiya – milliyashtirish va internatsional o’zlashmalarni qo’llash – doimiy raqobatda bo’ladi⁹. Bizning fikrimizcha, “derbi” kabi o’zlashgan atamalar shunchaki ikki jamoa o’yini emas, balki tomoshabinlar uchun yuqori taranglik va katta qiziqish uyg’otuvchi voqea ramzi sifatida ishlatiladi. Bunday jarayonlarda so’zning semantik yadrosi o’zgarishsiz qoladi, ammo uning pragmatik qatlami kengayib, u emotsional signal va identitet belgisiga aylanadi.

Shunday qilib, rus tilidagi tadqiqotlarda sport diskursi pragmatikasining milliy, janriy va tarjimaviy qirralari chuqur yoritilgan. Ularning qarashlaridan ko’rinadiki, sport sharhlari va muxlislar nutqi nafaqat axborot uzatish, balki auditoriyada muayyan hissiy va ijtimoiy effekt uyg’otish bilan ham ajralib turadi. Ayniqsa, metaforalar, eponimlar va ekspressiv birliklar orqali sport diskursi boshqa sohalar (siyosiy, madaniy, reklama diskurslari) bilan interdiskursiv aloqaga kirishadi. Bu hodisa uning pragmatik murakkabligini oshiradi va uni o’rganishda ko’p qatlamli yondashuvni talab qiladi.

⁶ Meszaros M. Lexicological View of the Language of the Sport Commentaries: Diploma Thesis. – Brno: Masaryk University, 2014. – P. 29.

⁷ Putra R.P. Figurative Language in Football Commentaries: A Neutrality Bias Analysis of the 2022 FIFA World Cup Final: Thesis. – Padang: Universitas Negeri Padang, 2024. – P. 18.

⁸ Ayaqulov N.A. Sport Terms Borrowed from Different Languages into Uzbek // International Journal of Linguistics, Literature and Translation. – 2019. – Vol. 2. – № 4. – P. 159-160.

⁹ Ayaqulov N.A. O’sha asar.

Mahalliy manbalar sport diskursining o'zbek tilidagi ko'rinishlarini tahlil qilib, unda milliy va global unsurlar uyg'unligini aks ettiradi. O'zbek muxlislarining nutqida xalqaro terminologiya bilan bir qatorda milliy metaforalar va qadriyatlarga xos iboralar faol ishlatilishi sport diskursini lingvomadaniy jihatdan boyitadi. Bu esa uning pragmatik funksiyalarini yanada kengaytiradi: muxlislarning qichqiriqlari va onlayn izohlari nafaqat emotsional chiqish, balki milliy g'urur va jamoaviy birlikni mustahkamlovchi nutqiy akt sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Soina I. Sports discourse of modern linguistic culture // Actual Problems of the Humanities and Natural Sciences. – Vol. 9. – No. 3. – 2023. – P. 79.
2. Лебедев А.В., Цыбина Л.В. Особенности англоязычного спортивного дискурса // International Research Journal. – № 7 (145). – 2024. – С. 3.
3. Зильберт А.Б., Зильберт Б.А. Спортивный дискурс: базовые понятия и категории; исследовательские задачи // Язык. Сознание. Коммуникация. – Вып. 17. – Москва: МАКС Пресс, 2001. – С. 58.
4. File K. Fan identity and football culture: locating variation in the 'fan as hooligan' discourse // Soccer & Society. – 2023. – Vol. 24. – № 8. – P. 1011.
5. Luhrs J. Football Chants and the Continuity of the Blason Populaire Tradition // (Working paper). – 2007. – P. 5.
6. Meszaros M. Lexicological View of the Language of the Sport Commentaries: Diploma Thesis. – Brno: Masaryk University, 2014. – P. 29.
7. Putra R.P. Figurative Language in Football Commentaries: A Neutrality Bias Analysis of the 2022 FIFA World Cup Final: Thesis. – Padang: Universitas Negeri Padang, 2024. – P. 18.
8. Ayaqulov N.A. Sport Terms Borrowed from Different Languages into Uzbek // International Journal of Linguistics, Literature and Translation. – 2019. – Vol. 2. – № 4. – P. 159-160.